



**SAMARQAND VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**SAMARQAND  
VILOYATIDA  
QURILISH ISHLARI**


**2023-YIL  
YANVAR-IYUL**

2023-yilning yanvar-iyul oylarida, Samarqand viloyatida jami **5 325,8** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2022-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **110,7 %** ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari tarkibi, foizda

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.





# 2023-yil 1-avgust holatiga ko‘ra, qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, birlikda



## Hududlar kesimida


### Yillar kesimida soni



Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o‘shishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2022-yilning mos davri bilan solishtirganda 71,5 % ni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni to'g'risida ma'lumot, birlikda

	holatiga:		o'tgan yilga nisbatan, foizda
	01.08.2022-y.	01.08.2023-y.	
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>3 441</b>	<b>2 459</b>	<b>71,5</b>
Samarqand sh.	1 1170	784	67,0
Kattaqo'rg'on sh.	138	103	74,6
<i>Tumanlar:</i>			
Oqdaryo	159	117	73,6
Bulung'ur	76	61	80,3
Jomboy	138	106	76,8
Ishtixon	141	101	71,6
Kattaqo'rg'on	139	120	86,3
Qo'shrabot	78	64	82,1
Narpay	85	75	88,2
Payariq	297	207	69,7
Pastdarg'om	340	195	57,4
Paxtachi	75	65	86,7
Samarqand	156	121	77,6
Nurobod	66	60	90,9
Urgut	238	161	67,6
Toyloq	145	119	82,1





2023-yil 1-avgust holatiga ko'ra,  
 hududlar bo'yicha  
 faoliyat ko'rsatayotgan qurilish  
 korxonalarining ulushi, foizda




Samarqand sh. 32,0



Payariq 8,4



Pastdarg'om 7,9



- Samarqand sh.
- Kattaqo'rg'on sh.
- Oqdaryo
- Bulung'ur
- Jomboy
- Ishtixon
- Kattaqo'rg'on
- Qo'shrabot
- Narpay
- Payariq
- Pastdarg'om
- Paxtachi
- Samarqand
- Nurobod
- Urgut
- Toyloq

# Qurilish ishlari


## 2023-yil yanvar-iyul oylari uchun

	qurilish ishlari hajmi, mlrd. so‘m	shu jumladan:		
		yirik qurilish tashkilotlari	kichik va mikrofirmalar	norasmiy sektor
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>5 325,8</b>	<b>845,4</b>	<b>4 120,1</b>	<b>360,3</b>
Samarqand sh.	1 649,0	59,9	1 510,8	78,3
Kattaqo‘rg‘on sh.	69,7	4,9	50,6	14,2
<i>tumanlar:</i>				
Oqdaryo	413,5	3,1	391,0	19,4
Bulung‘ur	142,3	8,0	112,7	21,6
Jomboy	236,7	0,0	219,2	17,5
Ishtixon	255,0	6,3	231,4	17,3
Kattaqorg‘on	150,5	3,3	133,4	13,8
Qo‘shrabot	114,4	11,3	85,5	17,6
Narpay	136,0	1,2	117,5	17,3
Payariq	374,2	36,0	316,8	21,4
Pastdarg‘om	443,1	224,1	198,4	20,6
Paxtachi	96,8	1,2	78,1	17,5
Samarqand	232,4	1,6	207,6	23,2
Nurobod	52,0	14,9	18,6	18,5
Urgut	299,5	14,4	261,7	23,4
Toyloq	1 030,0	730,7	265,3	18,7



2023-yilning yanvar-iyul oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 845,4 mlrd. so‘mni, 2022-yilning mos davriga nisbatan 111,0 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 15,9 % ni tashkil etdi.

## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi



**MA'LUMOT UCHUN:** Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng ko'p ulush Toyloq tumani 53,8 %, Pastdarg'om 26,5 % va Samarqand shahrida 7,1 % hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2023-yilning yanvar-iyul oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 77,4 % to'g'ri kelib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 4,5 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022-yilning mos davriga nisbatan 118,3 % ga o'sgan holda 4 120,1 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

## Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi, foizda



77,4

2023-yil  
yanvar-iyul

72,9


2022-yil  
yanvar-iyul



**MA'LUMOT UCHUN:** Joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush Samarqand shahrida (1 510,8 mlrd. so'm yoki umumiy hajmning 36,7 %), Oqdaryo tumani (391,0 mlrd. so'm yoki 9,5 %), Payariq tumani (316,8 mlrd. so'm yoki 7,7 %)ga to'g'ri keldi.



**Bajarilgan qurilish ishlari hajmida norasmiy sektorning ulushi 6,7 % yoki 360,3 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 60,8 % ni tashkil etdi.**



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi hamda ulushi, foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **119,0** mlrd. so‘mlik hamda nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **5 206,8** mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,2 %** va **97,8 %** ni tashkil etdi.



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,  
rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2023-yil yanvar-iyul oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **66,7 %** yoki **3 552,6** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**23,8 %**

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **845,4** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **23,8 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **2 368,8** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **66,7 %** ni tashkil etdi.

**66,7 %**

**9,5 %**


Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **338,4** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **9,5 %** ni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2023-yil yanvar-iyul oylarida

	qurilish ishlari, mlrd. so‘m	o‘shish sur‘ati, foizda	ulushi, foizda
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>5 325,8</b>	<b>110,7</b>	<b>100,0</b>
Samarqand sh.	1 649,0	110,6	31,0
Kattaqo‘rg‘on sh.	69,7	105,2	1,3
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	413,5	110,4	7,8
Bulung‘ur	142,3	118,3	2,7
Jomboy	236,7	107,9	4,4
Ishtixon	255,0	109,1	4,8
Kattaqo‘rg‘on	150,5	113,3	2,8
Qo‘shrabot	114,4	113,2	2,1
Narpay	136,0	106,4	2,6
Payariq	374,2	117,8	7,0
Pastdarg‘om	443,1	117,6	8,3
Paxtachi	96,8	106,4	1,8
Samarqand	232,4	93,6	4,4
Nurobod	52,0	110,8	1,0
Urgut	299,5	108,3	5,6
Toyloq	660,7	112,5	12,4



**Ma‘lumot uchun:** Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi bu, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.



2023-yil  
yanvar-iyul

Ulushi, foizda

2022-yil  
yanvar-iyul

4,9

25,9

69,0

50,4

26,1

23,7



**Yirik qurilish  
tashkilotlari**



**Kichik korxonalar  
va mikrofirmalar**



**Norasmiy  
sektor**

**2023-yil yanvar-iyulda bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 4,9 % ni tashkil etgan.**

**Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 69,0 % ni tashkil etdi.**

**Norasmiy sektorning ulushi esa 26,1 % ni tashkil etdi.**

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 20,6 % ni tashkil etdi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 79,4 % ni tashkil etdi.



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida 100,0 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 29,8 % punktga ko'payish kuzatildi.

